

NOGIRONLIGI BO'LGAN BOLALAR BILAN IJTIMOIIY ISH OLIB BORISH TEXNOLOGIYALARI: NAZARIYA VA AMALIY YONDASHUVLAR

Aripova Ma'mura Shuhrat qizi

Isoqulova Durdona Jahongir qizi

Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo'rg'on filiali,

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti "Ijtimoiy ish" yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Ibragimov Jahongir Toshniyozovich

Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda nogironligi bo'lgan bolalar bilan ijtimoiy ish olib borish masalasi global va milliy miqyosda dolzarb hisoblanadi. Ularning ijtimoiy moslashuvi, inklyuziv ta'lim olish imkoniyatlari, teng huquqlilik tamoyillariga asoslangan yashash sharoitlarini yaratish – ijtimoiy ishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Mazkur maqolada nogiron bolalar bilan ishlashda qo'llaniladigan ijtimoiy ish texnologiyalari, ularning samaradorligi va amaliyotdagi ahamiyati ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi.

Аннотация: Сегодня проблема социальной работы с детьми с ограниченными возможностями актуальна как в мировом, так и в национальном масштабе. Важными направлениями социальной работы являются их социальная адаптация, возможности инклюзивного образования, создание условий жизни, основанных на принципах равенства. В статье на основе научных подходов анализируются технологии социальной работы, применяемые в работе с детьми с ограниченными возможностями, их эффективность и значение в практической деятельности.

Abstract: Today, the issue of social work with children with disabilities is relevant both globally and nationally. Their social adaptation, opportunities for inclusive education, and the creation of living conditions based on the principles of equality are among the important areas of social work. This article analyzes the social work technologies used in working with children with disabilities, their effectiveness, and their significance in practice based on scientific approaches.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, reabilitatsiya, fizioterapiya, integratsiya, oila, kase menejment, bola, ijtimoiy pedagogik, BMT, psixokorreksion, stereotip

Ключевые слова: Инклюзивное образование, реабилитация, физиотерапия, интеграция, семья, кейс-менеджмент, ребенок, социальная педагогика, ООН, психокоррекция, стереотип

Keywords: Inclusive education, rehabilitation, physiotherapy, integration, family, case management, child, social pedagogy, UN, psychocorrection, stereotype

Nogironligi bo'lgan bola – bu jismoniy, aqliy, hissiy yoki ruhiy nuqsonlarga ega bo'lib, to'liq hayot faoliyatida qatnashish imkoniyatlari cheklangan bola hisoblanadi. Ular o'z tengdoshlariga nisbatan ko'proq yordamga muhtoj bo'ladi. Ularning asosiy ehtiyojlariga quyidagilar kiradi:

1. Sifatli ta'lim (inklyuziv va moslashtirilgan shaklda),
2. Tibbiy xizmatlar (reabilitatsiya, fizioterapiya),
3. Psixologik yordam,
4. Ijtimoiy moslashuv va integratsiya,
5. Ishonchli oilaviy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.

Nogironlik bu nafaqat tibbiy holat, balki ijtimoiy muammolar majmuasi hamdir. Nogiron bolalar jismoniy, ruhiy yoki aqliy rivojlanishidagi cheklovlar tufayli turli to'siqlarga duch keladi. Ularning ehtiyojlari individual bo'lib, ijtimoiy himoya, ta'lim, sog'liqni saqlash, kommunikatsiya va madaniy muhitga integratsiyalashuvni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy ish nogiron bolalarning ijtimoiy tengligini ta'minlash, ularni jamiyatga moslashtirish, huquq va ehtiyojlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Bu jarayonda ijtimoiy xodimlar bola, uning oilasi va atrof-muhiti bilan kompleks tarzda ishlaydi. Ijtimoiy ishning asosiy vazifasi – bolada mustaqil yashash, o'z-o'zini boshqarish va moslashuvni shakllantirishdir.

Nogiron bolalar bilan ishlashda quyidagi texnologiyalar qo'llaniladi:

- Kase menejment (Case management): bola ehtiyojlarini aniqlash va resurslarni birlashtirish orqali yordam berish.
- Psixokorreksion texnologiyalar: bola psixikasidagi stress, qo'rquv, ishonchsizlikni bartaraf etish.
- Sotsial-pedagogik texnologiyalar: bola ijtimoiy hayotga faol kirishishiga yordam beruvchi yondashuvlar.
- Inklyuziv texnologiyalar: maktab va ta'lim muassasalarida maxsus sharoit yaratish orqali qo'llab-quvvatlash.
- Maslahat berish texnologiyalari: ota-onalarga psixologik va ijtimoiy yo'l-yo'riq ko'rsatish.

Aynan Inklyuziv ta'lim texnologiyasi nogiron bolalarni umumiy ta'lim tizimiga to'siqsiz jalb qilishni ta'minlaydi. Masalan, moslashtirilgan darsliklar, individual o'quv rejalar, yordamchi pedagoglar bilan ishlash. Inklyuziv ta'lim deganda - alohida ta'lim ehtiyojlari va hamma bolalarning imkoniyatlarining xilma-xilligini hisobga olgan holda, ta'lim muassasalarida o'qiyotgan barcha o'quvchi bolalar uchun ta'lim olishdan teng foydalanishi tushuniladi. Boshqa so'z bilan aytganda, bitta sinfda nogironligi bo'lgan bolalar barcha bolalar bilan birgalikda ta'lim oladi hamda teng shart-sharoitlar yaratib beriladi. O'qish tomondan kamsitish, ajratib qo'yishga yo'l

qo'yilmaydi. Inklyuziv ta'lim beradigan maktab va boshqa tashkilotlarda nogironligi bo'lgan bolalarning bemaolol harakatlanishi uchun barcha sharoitlar bilan ta'minlangan holda bo'lishi lozim. Masalan turli xil eshitish moslamalari, Brayl alifbosidagi va boshqa muhim kitoblar, ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich kabilar.

Bugungi davrga kelib ushbu sohada yetarlicha faoliyat olib borilmoqda. Biroq, amaliy jarayonlarga ko'z tashlar ekanmiz bir qator muammolarga duch kelmoqdamiz. Jumladan:

- Mutaxassislar yetishmovchiligi (ijtimoiy pedagog, reabilitolog)
- Tashkiliy tizimlarning uzviy bog'liqligi yo'qligi
- Ota-onalarning psixologik tayyorgarligi pastligi
- Jamiyatda mavjud stereotip va stigma.
- Oilaviy muhitning yetarlicha qo'llab-quvvatlamasligi
- Infratuzilma va moliyaviy resurslar cheklanganligi

Ushbu muammolar atroflicha hal etilayotgan bo'lsada, ba'zi chekka hududlarida hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Nogironligi bo'lgan bolalar bilan ishlashda ijtimoiy ish texnologiyalarining zamonaviy va innovatsion turlaridan foydalanish zarur. Innovatsion yondashuvlar sifatida quyidagi yondashuvlarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

- Masofaviy xizmatlar (onlayn maslahatlar, telepsixologiya)
- Ko'ngillilar harakati asosida yordam ko'rsatish
- Individual reabilitatsiya dasturlarini raqamlashtirish.

Har bir bola uchun individual yondashuv ishlab chiqilishi, ijtimoiy xodimlar doimiy o'qitilishi va tajriba almashinuvi yo'lga qo'yilishi lozim. Jamiyatdagi barcha institutlar – maktab, oilaviy shifokor, psixolog va davlat ijtimoiy xizmati uzviy hamkorlikda ishlashi kerak.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida inson salohiyati va ijtimoiy himoyani ustuvor yo'nalish sifatida belgilab oldi. Ayniqsa, nogironligi bo'lgan bolalarning ijtimoiy hayotda to'laqonli ishtirok etishini ta'minlash davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. Bu borada ijtimoiy ish texnologiyalarini qo'llash nogiron bolalarni qo'llab-quvvatlashda asosiy vosita sifatida qaralmoqda. 2020-yilda qabul qilingan "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Qonun (va BMTning CRPD Konvensiyasi (asosida nogiron bolalarga taqdim etilayotgan xizmatlar spektri kengaydi. Shu bilan birga, ijtimoiy ish faoliyatini zamonaviy texnologiyalar asosida yuritish zaruriyati ham ortmoqda.

Nogironligi bo'lgan bolalar yashayotgan jamiyatimizning teng huquqli fuqarolari hisoblanadi. Albatta, nogironligi bo'lgan bolalarning huquqlari davlat tomonidan kafolatlanadi. Kimdir cheklashga yo'l qo'yilmaydi. Bundan tashqari, har qanday kamsitish taqiqlanadi, ya'ni nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan ajratib

qo'yish, istisno etish, chetlatish, cheklash (nogironligi bolgan bolalar bilan o'ynamaslik, ular bilan bir partada o'tirmaslik kabilar), shu-ningdek nogironligi bo'lgan shaxslarning obyektlar (masalan, nogiron bolalar va kattalar uchun quay transportning yo'qligi, jamoat binolarida panduslar, maxsus liftlarning o'rnatilmagan-ligi, ko'rish qobiliyati zaif odamlar uchun taktil qarama-qarshi belgilari va boshqalar) va xizmatlardan (masalan, nogironligi sababli tibbiy yordam ko'rsatishdan bosh tortish, nogiron bolani maktabga qabul qilmaslik) foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratishni rad etish taqiqlanadi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari qonun bilan kafolatlab qo'yilgan. Shuningdek, so'nggi yillarda hukumat qarori bilan aynan nogironligi bo'lgan bolalarni kunduzgi parvarishlash xizmatlarini tashkil etilishi, nogironligi bor bolalarning integratsiyalashuvi va ularni qo'llab quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan bolalarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 3-fevraldagi PQ-41-son qaroriga muvofiq 2025-yil 1-martdan boshlab tajriba-sinov tariqasida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo va Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahrida, 2025-yil 1-oktabrga qadar esa respublikaning qolgan hududlarida davlat-xususiy sheriklik asosida 3 yoshdan 18 yoshgacha nogironligi bo'lgan bolalar uchun kunduzgi parvarish xizmati yo'lga qo'yildi. Va bu borada amaliy ishlar jadal davom ettirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Qonuni – <https://lex.uz/acts/-5049511>
2. BMT Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi – <https://www.un.org/development/desa/disabilities/>
3. Raxmatov A.M. Ijtimoiy ish nazariyasi va amaliyoti. – T.: 2021
4. Egamberdiyeva M.N. Nogiron bolalar bilan ishlash psixologiyasi. – T.: 2020
5. Islomova M.I. Ijtimoiy xizmatlar texnologiyalari. – T.: 2022
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish cho-ra-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori - <https://lex.uz/uz/docs/-5044711>